

ADABIY TANQID HAMDA TANQIDCHILIK FAOLIYATI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

Tulishova Gulzina Ravshanovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti

o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasи o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada adabiy tanqidchilikning taraqqiyot tamoyillari, bu jarayonda alohida o‘ringa ega bo‘lgan adabiyotshunos – tanqichilarimizning tanqidchilikning o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi qarashlari tahvilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: Adabiy tanqid, adabiyotshunos, adabiy-tanqidiy jarayon, adabiy-estetik tafakkur, tanqidchi, shoir, mutafakkir, ijodiy meros.

ANNOTATION

The article analyzes the principles of development of literary criticism, the views of our literary critics, who have a special place in this process, about the specific characteristics of criticism.

Key words: Literary criticism, literary critic, literary-critical process, literary-aesthetic thinking, critic, poet, thinker, creative heritage.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются принципы развития литературной критики, взгляды наших литературоведов, занимающих особое место в этом процессе, на специфические особенности критики.

Ключевые слова: Литературоведение, литературный критик, литературно-критический процесс, литературно-эстетическое мышление, критик, поэт, мыслитель, творческое наследие.

O‘zbek adabiy tanqidchiligi va adabiyotshunosligining asoschilaridan biri sanalgan Alisher Navoiy adabiy-estetik qarashlari silsilasida asosiy o‘rin tutuvchi dolzarb muammolar nimalardan iborat va ular bugungi adabiy-tanqidiy jarayon va adabiy-estetik tafakkur rivojida nechog‘lik ahamiyat kasb etadi. Albatta, mavzuni keng yoritish uchun juda ko‘plab salmoqli tadqiqotlar talab qilinadi. Bu o‘rinda shuni alohida ta’kidlash lozimki, Navoiyning hayoti, badiiy ijod hamda adabiy-tanqidchilikdagi faoliyatini o‘rganish borasidagi izlanishlar, ayniqsa, so‘nggi yillarda yana ham samarali tus olganligini e’tirof etish lozim.

Prezidentimiz tashabusi va taklifi bilan Turkiy davlatlar xalqlari o‘rtasida Alisher Navoiy nomidagi xalqaro Davlat mukofoti ta’sis etilishi ulkan bir tarixiy voqeа bo‘lganligi yakdillik bilan e’tirof etilmoqda¹.

Xususan, Navoiy merosini chuqur o‘rganish Prezidentimizning ulug‘ shoir tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risidagi tarixiy Qaroridan so‘ng yangi bosqichga ko‘tarilayotganini katta quvonch bilan e’tirof etish lozim. Darhaqiqat, buyuk shoir va mutafakkirning ma’naviyatimizni yuksaltirishga va yosh avlodda insoniy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan umuminsoniy g‘oya va qarashlarini keng yoyish sohasida muayyan ijobiy natijalar ko‘zga tashlanmoqda. Binobarin, ilmiy tadqiqotchilik oldida turgan bu vazifa bugungi kunda milliy yuksalish bosqichiga qadam qo‘ygan yangi O‘zbekistonimizning porloq kelajagi uchun ham suv bilan havodek zarurdir. “Ulug‘ shoir ijodiy merosi xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirish, yosh avlodni vatanga sadoqat va milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalashda alohida ahamiyat kasb etadi”².

Zotan, benazir ijodkor Navoiy ma’rifiy merosini mumtoz badiiy tafakkurimiz tamal poydevorlaridan biri sifatida bugungi ulkan islohotlar jarayoniga tadbiq etish va uni barkamol avlod kelajagini ta’minalashga yo‘naltirish fan va ta’lim tizimi oldidagi muhim vazifalardan sanaladi.

Tanqidchilik va adabiyotshunoslik hamisha so‘z san’ati bilan uzviy bog‘liqlikda rivojlanib kelgan. O‘zbek adabiyoti tarixida adabiyotshunos likka oid qator asarlarni va adabiy jarayon haqida ma’lumot beruvchi qator tazkiralarni ham uchratamiz. Masalan, necha minglab she’rlar va besh mukammal dostonlarni o‘z ichiga olgan Xamsadek ulkan ijod namunalarini yaratgan Navoiy va “Boburnoma”dek fundamental va qomusiy asarni yozgan Bobur mirzolar tanqid va adabiyotshunoslik sohasida ham beqiyos faoliyat ko‘rsatganlari yuksak e’tibor va ehtiromga munosibdir. Ular bu borada ham ko‘plab salmoqli ilmiy-nazariy tadqiqot yaratganligini, xususan, “Majolis un-nafois” yuzlab adabiy portret namunalari va portret chizgilardan tashkil topganligini, “Boburnoma”da va keyingi asrlarda etishib chiqqan qator shoir larimizning asarlarida xotira, portret chizgilari janrlari diqqatni jalb qilishini, nihoyat, klassik adabiyotda biografik xarakterdagи qator asarlar ham mavjudligini ham qayd etishimiz lozim.

Barcha asrlarda badiiy-estetik tafakkur rivojida adabiy tanqid - “ilmi naqd”ning muhim o‘rni va ahamiyati e’tirof etiladi. Chinakam tanqid badiiy asar vositasida hayot, inson haqida mushohada yuritadi; badiiy asarning ijtimoiy va tarixiy-madaniy munosabatlardagi o‘rni, vazifasi, milliy-mafkuraviy, umuminsoniy mohiyatini yoritadi; falsafiy-estetik qiymatini belgilaydi; badiiy asar ruhiga singdirilgan va uning

¹ Qosimov U. O‘zbek dabiyoti va tanqidchiligi tarixidan lavhalar. –T: Iqtisod-moliya, 2006 yil 12-b.

² Mirziyoev Sh. Adabiyot, san’at va madaniyat yashasa, millat va xalq bezavol yashaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ijodkorlar bilan uchrashuvidagi ma’ruzasi. // Xalq so‘zi gazetasi, 2019 yil 9 fevral.

tagma’ nosi-mag’zini ifodalagan go’zallikni va inja jihatlarni kashf etadi, ilmiy-mantiqiy xulosalar asosida yuksak badiiylik talab-mezonlarini belgilashga yo‘naltiradi. Mashhur adib va allomalar tomonidan ta’kidlanganidek, adabiyot va tanqid doimo bir-biri bilan qo‘l ushlashib boradi va bir maqsadga xizmat qiladi. (Belinskiy). Atoqli munaqqid va adabiyotshunoslardan Ozod Sharafiddinov adabiy tanqidchilik kasbi va uning o‘ziga xos xususiyatlari va talablarini quyidagicha ta’kidlaydi: “Adabiy tanqid lirika va drama, qissa va roman kabi adabiyotning, so‘z san’atining teng huquqli janrlaridan biridir. Binobariin, adabiy tanqid ham g‘oyat murakkab, g‘oyat mas’uliyatli janrdir”.

Shoirlik yoki romannavislikni da’vo qiluvchi har qanday odam ham shoir yoxud yozuvchi bo‘lavermaganidek, taqriz yoxud maqola e’lon qilgan odamni ham tanqidchi deb e’tirof etib bo‘lmaydi. Tanqidchi bo‘lish uchun, albatta, iste’dod kerak, shoir, dramaturg yoxud nosir bo‘lish uchun iste’dod, talant qanchalik zarur bo‘lsa, tanqidchi bo‘lish uchun ham shunchalik zarur. Yirik adabiyotshunoslar ta’kidlashicha, tanqidchilik talanti uch elementdan tashkil topadi. Bularidan birinchisi – adabiyotdagি go’zallikni, g‘oyaviy va badiiy boylikni his qila bilishdir. Mutafakkirlardan biri tanqidchilikka shunday ta’rif beradi: “Tanqid badiiy asarni emotsional qabul qilish jarayonini idrok etish san’atidir”. Bu ta’rifda katta haqiqat bor. Tanqidchilik talantining tarkibiga kiruvchi yana bir element fikrlash qobiliyatidir. Tanqidchi o‘qigan narsalarini chuqur tahlil qila bilishi, asardagi voqeа va hodisalarini va xarakterlarni hayot hodisalari bilan, hayotdagi jonli odamlar bilan taqqoslay bilishi va bu taqqoslardan jamiyat hayoti uchun zarur hamda foydali xulosalar, umumlashmalar chiqara olishi kerak. Tanqidchi faqat badiiy asarning sharhlovchisigina bo‘lib qolishi mumkin emas. Tanqidchi bo‘lishni istagan odam adabiyotni butun vujudi bilan sevishi, unga sidqidildan, fidoyilik bilan xizmat qilishi lozim. Chinakam so‘z san’ati tanqidchi uchun olamdagи eng muqaddas, eng mo‘tabar, eng qutlug‘ narsa bo‘lmog‘i darkor. “Taqnidchilik kasbining murakkabligi shundaki, bu kasbda biron bir sezilarli muvaffaqiyatga erishmoq uchun iste’dodning o‘zi mutlaqo kifoya emas. Iste’dod bo‘lsa, butun umr davomida uni avaylab, parvarishlab, oziqlantirib turish lozim. Buning ma’nosи shuki, har qanday talant kabi, tanqidchilik talanti ham to‘qson to‘qqiz foyizi mehnatdan tarkib topadi. Tanqidchilik iste’dodining ozuqasi, qanoti bilimdir...”¹. Darhaqiqat, adabiyot va ijod olamiga Ozod Sharafiddinovdan oldin yoxud keyin kirib kelgan ko‘plab munaqqid va adabiyotshunoslar o‘zlaridagi tabiiy iqtidor bilan birga yuqorida ta’riflangan fazilatlarni mujassamlashtirgan va ilmiy-ijodiy salohiyat egalari ekanligiga ularning asarlari va faoliyati misolida amin bo‘lamiz.

¹ Ozod Sharafiddinov. Talant xalq mulki. –T.: Adabiyot va san`at. 1979.174-179-bb.

So‘z san’ati va adabiy tanqid munosabatlari va uzviy bog‘liqligi yoritilgan ilmiytarixiy manbalarda ko‘rsatilishicha, haqiqiy ma’nodagi tanqid va badiiy asardagi ma’no va go‘zallikni kashf etuvchi talqin, Ozod Sharafiddinov orzu va amal qilganidek, eng avvalo, yuksak saviyadagi kitobxonlik bilan bog‘liqdir. Badiiy matnni uqish va uning zamirida yotgan adabiy ma’noni anglash uchun shunday yuksak maqomdagagi “professional kitobxonlik” zarurligi haqida buyuk jadid ma’rifatchilari ham ko‘p bora yozishgan. Zotan, sharq adabiyotshunosligi va Navoiy davri tanqidchiligidagi ilmi dark (idrok ilmi), urafo (mavjud qarashlar asosidagi talqin) va zurafo (asardagi zarofat-yangilikni his etish) kabi talqin jarayonining ilmiy-ma’naviy shart va omillari sifatida belgilangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Qosimov U. O‘zbek dabiyoti va tanqidchiligi tarixidan lavhalar. –T: Iqtisodmoliya, 2006 yil 12-b.
2. Mirziyoev Sh. Adabiyot, san’at va madaniyat yashasa, millat va xalq bezavol yashaydi. // Xalq so‘zi gazetasi, 2019 yil 9 fevral.
3. Ozod Sharafiddinov. Talant xalq mulki. –T.: Adabiyot va san’at. 1979.174-179-bb.